XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 20-iyul VI-88-102-5-77-K/24 Xatirchi tumani

Tumandagi takrorlangan ko‘cha nomlarini qayta nomlash va nomlanmagan qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining tumandagi takrorlangan ko‘cha nomlarini qayta nomlash va nomlanmagan qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi takliflarini muhokama qilib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Respublika toponimika xizmati tomonidan taqdim etilgan geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risida 2023-yil 21-dekabrdagi 02-18-1895-sonli hamda 2024-yil 11-yanvardagi 05-19-01-25-sonli xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasining xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining tumandagi takrorlangan ko‘cha nomlarini qayta nomlash bo‘yicha 1-ilovaga muvofiq hamda nomlanmagan qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi takliflar 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin va tasdiqlansin.

3. Ichki ishlar bo‘limi (O. Ro‘zimurodov), Mahallalar kengashi tuman bo‘limi (V. Avlanov), Obodonlashtirish boshqarmasi (J. Rahmonov), Statistika bo‘limi (A. Xusanov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A. Shodiyev), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A. Xidirov) mazkur qarordan kelib chiqib tegishli hujjat va hisobotlarda belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin, yangidan nomlangan ko‘chalar nomlari va qabristonlar nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Nomozov) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilish hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I. Muxammadiyev), Mahallalar kengashi tuman bo‘limi (V. Avlanov) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi

MUSTAFOYEV
IBODULLA XXX

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2024-yil 20-iyuldagi
VI-88-102-5-77-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xatirchi tumanidagi nomlari o‘zgartiriladigan geografik obyektlar (ko‘chalar)

T/r	Geografik obyektning amaldagi nomi	Komissiya tomonidan berilgan taklif
1.	Adolat	Nurlihayot
2.	Daryoobod	Gulobod
3.	Olmazor	Charog‘on
4.	Mirzo Ulug‘bek	Shijoat
5.	Polvonota	Barkamol
6.	Burqut	Namuna
7.	Olmazor	Sohibkor
8.	Shirin	Shirinsoy
9.	Alisher Navoiy	Obodkent
10.	Bobur	Nurliyo‘l
11.	Nomsiz	Obodmanzil
12.	Mustaqillik	Farovon yurt
13.	Istiqlol	Sohil
14.	Navoiy	Fidoiylar
15.	Chorvador	Sho‘rbuloq
16.	Yoshlar	Yoshlar kelajagi
17.	Guliston	Ilg‘or
18.	Istiqlol	Obihayot
19.	Mustaqillik	Fazo
20.	Nomsiz	Mardlik
21.	Nomsiz	Istiqbol
22.	Alisher Navoiy	Yangilanish
23.	Amir Temur	Ziyokor
24.	Jaloliddin Manguberdi	Ezgulik
25.	Mustaqillik	Shahribarbar
26.	Navro‘z	Uzumzor
27.	Toshquloq	Yangiyo‘l
28.	Sufi	Eshonto‘p

29.	Yangi	Yangidavr
30.	Saroy	Xo‘jaqulobod

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2024-yil 20-iyuldagi
VI-88-102-5-77-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xatirchi tumanidagi nomlari o‘zgartiriladigan geografik obyektlar (qabristonlar)

T/r	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi
1.	Nomsiz	Angidon
2.	Nomsiz	Chinor
3.	Nomsiz	Tariqpoya
4.	Nomsiz	Chag‘irko‘l
5.	Nomsiz	Xonaqosoy
6.	Nomsiz	Quvray
7.	Nomsiz	Shaldiroq
8.	Nomsiz	Toshbuloq
9.	Nomsiz	Yong‘oqli
10.	Nomsiz	Ochamayli
11.	Nomsiz	Burqut
12.	Nomsiz	Chilash
13.	Nomsiz	Eshonbobo
14.	Nomsiz	To‘qsonboytepa
15.	Nomsiz	Oqgumbaz
16.	Nomsiz	Abdurahmonota
17.	Nomsiz	Rajab Aminbobo
18.	Nomsiz	Qirosharota
19.	Nomsiz	Bo‘ston
20.	Nomsiz	Tulakota
21.	Nomsiz	Dovtepa
22.	Nomsiz	Xuddon
23.	Nomsiz	Quchchi
24.	Nomsiz	Yalang‘och
25.	Nomsiz	Xaydarota
26.	Nomsiz	Qumota
27.	Nomsiz	Yahudiylar
28.	Nomsiz	Daminota

29.	Nomsiz	Hasanota
30.	Nomsiz	Qoʻtirbuloq
31.	Nomsiz	Qizbibi
32.	Nomsiz	Daryoobod
33.	Nomsiz	Qoʻchqorchi
34.	Nomsiz	Quliqchinota